

## TEXNOLOGIK TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI

**S.A.Baltabayev**

*Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti*

**Annotatsiya:** *Maqolada maktab o'quvchilariga texnologik ta'lim va texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy muammolari muhokama qilinadi.*

**Tayanch so'zlar:** *texnologiya, texnologik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, qobiliyatlar, muammoli ta'lim.*

Zamonaviy inson o'zining keng texnokratik mafkurasi bilan ijtimoiy taraqqiyotning sanoat bosqichi o'tmishga aylangan sharoitda yashaydi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning ilmiy va texnologik usuli ustuvor hisoblanadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda bu usul inson faoliyatining ham moddiy, ham ijtimoiy tomonlarini keng qamrab oldi. Bugungi kunda jamiyatimizda nanotexnologiyalar, robot texnologiyalari va biotexnologiyalar jadal rivojlanmoqda va ijtimoiy turmush tarzida ko'proq foydalanilmoqda.

XXI asr texnologik inqilobi jahonda global texnologik taraqqiyotning zamonaviy chaqiriqlariga mos keladigan ilmiy-texnik salohiyatni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shu o'rinda, umumta'lim maktabi o'quvchilariga texnologik ta'limdagi o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiya va usullar asosida tashkil etish zarurdir. "Texnologiya" professional ta'lim uzluksizligini, o'z-o'zini tarbiyalash va kasbiy mehnat faoliyatini ta'minlaydigan asosiy amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim sohasi hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida texnologik ta'limning dolzarb muammosi uning mazmunini kengaytirishdir. U faqat moddiy texnologiyalarni (yog'ochga ishlov berish, metallga ishlov berish) o'rganish bilan cheklanib qolmasligi va axborot, ijtimoiy, dizayn, robotatexnika va boshqa texnologiyalarni o'z ichiga olishi kerak.

Rus olimi N.V.Sinitsa tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmasida texnologiya rivojlanishining hozirgi tendentsiyalarini quyidagicha aks ettirdi:

- sivilizatsiyaning texnologik rivojlanish qonuniyatlari, texnologik jarayon, texnologik tizim;
- materialshunoslik, zamonaviy ya'ni nano materiallarni haqida ma'lumot berish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari;
- materiallarga badiiy ishlov berish texnologiyalari;
- arxitektura qurilishi va uy-joy dizayni;
- transport, energetika va elektr energiyasi texnologiyalari;
- ekinchilik va chorvachilik texnologiyalari suv sanoati;

- zamonaviy gumanitar texnologiyalar (ijtimoiy, tibbiy va boshqalar).
- o`quvchilarning texnologik madaniyati va konstruktiv-texnologik tafakkurini shakllantirish;
- dizayn va texnologiya madaniyati, texnologiya loyihasini boshqarish;
- maktab o`quvchilarining kasbiy o`zini o`zi belgilashi uchun ta'lim traektoriyalarini qurish [1].

Umumta'lim maktablarida ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish texnologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmunini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlashning o'quv-moddiy bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada kengroq joriy etishni taqozo etadi.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'quv jarayonining holatini dastlabki tahlil qilishi va nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini qo'llashi kerak. O'qituvchilar o'quv topshiriqlari, ijodiy loyihalarni tayyorlashda axborot-texnologiyalardan faol foydalanishi zarur [2].

Masalan, ADEM integral konstruktiv-texnologik tizimi asosida o'quvchilar uchun maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydigan oddiy "Kompyuter konstruktorelekt sxemalarini ishlab chiquvchi" yaratildi, bu esa talabalarga kerakli elektr sxemasini tezda topish va chop etish imkonini beradi. Bu ta'lim vazifalarini bajarish uchun sarflangan vaqtni sezilarli darajada kamaytiradi [3].

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, texnologik ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan, axborot texnologiyalaridan va robotatexnika elementaridan foydalanish "Texnologiya" ta'lim sohasi jamiyatda rolini oshirishga, uning pragmatik yo'nalishini ta'minlashga, o'quvchilarning texnologik madaniyatini shakllantirishga, kasbiy ta'lim va mehnatga tayyorligiga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Воронин А.М., Самоторова О.А. Актуальные проблемы технологического образования. Педагогические науки. УДК 378.12. 2016. 201-203 с.

2. Воронин А.М., Селезнев В.А., Чайкин А.С. Разработка научного подхода организации и методики мало затратной подготовки студентов и специалистов для автоматизированного производства на основе компьютерного моделирования для учреждений профессионального образования. Монография. Брянск: Группа компаний «Десяточка», 2009. 127с.

3. Деревянко Д.М., Бочаров Н.Г., Васин Д.А. [и др.] Разработка электрических схем с применением компьютерных технологий // Научное сообщество студентов: междисциплинарные исследования: сборни. ст. по мат. III Междунар. студ. науч.-практ. конф. № 3. url: [sibac.info/sites/default/files/conf/file/stud\\_3\\_3.pdf](http://sibac.info/sites/default/files/conf/file/stud_3_3.pdf) (дата обращения: 20.06.2016)

